



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



ICJ JOURNALS
MASTER LIST

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
NUMBER
FOR
JOURNALS
PUBLISHED
PERIODICALLY
BY
INDIVIDUAL
OR
CORPORATE
PUBLISHERS
OR
BY
INTERMEDIARY
AGENTS
OR
BY
CONSENSUAL
ARRANGEMENT
BETWEEN
PUBLISHERS
AND
AGENTS

doi

zenodo

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBID

Google Scholar

open access.nl



INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

3-JILD, 3-SON
2026

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:

Google Scholar  digital object identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

3-JILD, 3-SON | MART - 2026 |

+99833 5668868 | www.innoworld.net | @Anvarbek_PhD

Faxriyorning "Geometrik bahor" to'plamida qo'llanilgan okkazionalizmlar Abruyeva Madina Uchqunjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Faxriyorning "Geometrik bahor" she'riy to'plamida qo'llanilgan okkazionalizmlar zamonaviy o'zbek she'riyatida individual uslub va poetik tafakkurning o'ziga xos ko'rinishini namoyon etadi. Ushbu ishda shoir tomonidan yaratilgan yangi, muallifga xos so'z va birikmalar — okkazionalizmlarning badiiy-estetik vazifasi, semantik tuzilishi hamda matndagi funksional o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: okkazionalizm, Faxriyor, yasama, til, g'ayriodatiy, tartibsizlik.

Okkazional so'zlar so'zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o'z fikr va maqsadini o'ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o'zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo'lgan o'z munosabati, ya'ni his-tuyg'ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo'llanadi. Okkazionalizmlar tasvir obyektini tasvirlashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganida yaratiladi [2;1]. Shuningdek, "okkazionalizm" termini nutqdagi turli xil g'ayriodatiy, favqulodda qo'llash va yasalmalar uchun ishlatiladi.

Okkazionalizmning tabiati, bir tomondan, til va nutq, til va marom, ikkinchi tomondan, umumiy doimiy qonuniyatlar va shaxsiy ijodiy qo'llanishlar, uchinchi tomondan, tartiblilik, odatiylik va tartibsizlik, g'ayriodatiylik o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar asosida belgilanishi ta'kidlandi. Quyidagi asosiy belgilar okkazionalizmlarga xos umumiy xususiyatlar sifatida qayd etildi: nutqiy hodisa; nutq vaziyati va maqsadi bilan bog'liq; uzualik va umumadabiy maromga nisbatan g'ayriodatiy, maromsiz; bir marta qo'llanishga mo'ljallangan; til ijodkorligi bilan bog'liq; shaxsiy so'z yasash va qo'llash bilan bog'liq; yasalishi va ishlatilishi asoslangan; ta'sirchanlik uchun xizmat qiladi. [3;13]

Shoir Faxriyor ijodiga nazar tashlasak, uning she'rlarida nafaqat adabiy tilda, balki xalq shevalarida ham mavjud bo'lmagan, yangi yasalgan so'zlarga ya'ni okkazionalizmlarga duch kelamiz. Bu birlikni orqali ijodkor badiiy tasvir vositasi sifatida qo'llagan. Quyida she'riy misralarda qo'llangan okkazionalizmlarni ko'rib chiqamiz:

Umidsizlik kabi tunlari
Kelsinmi u birdan cho'nglanib,
Ajinaday chalib munqlarin,
Goh so'llanib, gohi o'nglanib?[1;7]

Ushbu band orqali shoir kutilmaganlik tun bo'lganda noumidlikdek birdan kuchga to'lib kelsinmi. U hazin musiqalarini goh chap tomonga bo'lib, goh o'ng tomonga bo'lib, ajina kabi chalib kelsinmi? demoqda. Shuningdek, bu yerda og'zaki nutqda faol qo'llanuvchi o'nglanib leksemasining antonimi bo'lgan

"so'llanib" shakli ijodkor tomonidan yaratilgan. So'l(chap)+la(fe'l yasovchi)+ib(ravishdosh).

Gir aylanang kutilmaganlik,
Kelganmikin, bor emasmi?
Kelgan bo'lsa, u qay makonlik,
Bor bo'lsa, bir so'z demasmi?[1;8]

Yuqoridagi misralarda ham noodatiylik mavjud bo'lib, u "makonlik" so'zida ko'rinadi. Biz o'zbekistonlik, shaharlik, qishloqlik kabi so'zlar -lik o'rin-joyga xoslikni bildiruvchi affiksini qo'llaganmiz. Ammo ushbu she'rda affiksning ishtirok etishi yangilikdir.

Sochlarim oqarib borar tong kabi,
qadr kechalari endi kelmaydi.

Men endi ketarman tonglarni kechib,
vatansizliklarga, ishqsizliklarga.[1;24]

Ushbu bandda yuqoridagi kabi -lik qo'shimchasi mansublik ma'nosini bildirib, vatansizliklar so'zidan insonning o'z yurti, boshpanasi yo'qligi hamda ko'nglida ishq bo'lmaganlarning yoniga men ham ketarman degan.

Xo'rsindim, xo'rlarim sindi ming pora,
Akslandi har siniqda bir osmon.

Endi men tush emas shu osmonlarda
Yasharman kezgindi, ezgin darbadar...[1;24]

Kezgindi (kezib yuruvchi) so'zini tarixiy jihatdan asos va qo'shimchalarga ajratsak, kezmoq asos, gin sifat yoki ot yasovchi qo'shimcha hamda di o'tgan zamonni ifodalagan. Hozirgi kunda esa ushbu so'z turg'un shaklga ega bo'lib, kelgindi so'zi kabi asos va qo'shimchalarga bo'linmaydi.

Seni ko'rdim, faryodlandim,
lekin kuydim jimgina.

"Sim-sim"ladim, yuraging berk-
ochilmadi simgina.[1;30]

Ushbu band seni ko'rdim va faryod chekdim. Ammo bu holatdan sokingina kuydim, o'rtandim. Sim-sim deya hayqirishimga qaramasdan sim yuraging ochilmadi degan mazmundagi she'rdir. Bunda faryodlandim va "sim-sim"lamoq so'zlari okkazional birliklardir. Faryod+lan(fe'l yasovchi) so'zining zid ma'nosi bo'lgan shodlanmoq so'zi adabiy tilda faol qo'llanadi. Sim-sim+la (fe'l yasovchi) leksemasining asosi(sim-sim) bevosita "Ali bobo va qirq qaroqchi" ertagiga ishora qiladi.

Yonginamda yurgan seni
Qof oyoqlardan izladim.
Sen senmiding, men menmidim?
bahorlandim, kuzlandim.[1;31]

Faxriyor bahor, kuz fasl nomlariga -lan fe'l yasovchi qo'shimchani qo'shib poetik obraz yaratgan ijodkorlardan biri va yagonasidir. She'r davomida shoir bahor bo'ldim, kuz bo'ldim deya uqtirmoqda.

Kuygular qatron emas
eriyotgan muz bo'lar,
Yilimning to'rt fasli ham
ikki oy kuz bo'lar.[1;32]

Kuygu so'zini ko'rganimiz zahoti beixtiyor tuyg'u so'zi so'zi hayolga keladi. Boisi shuki tuyg'uning asosi bo'lgan tuymoq fe'lining ma'nosi his qilmoq bo'lib, yasalma esa hissiyot sanaladi. Shu jumladan, kuygu so'zidagi kuymoq fe'lining asosi esa yonmoq, iztirob chekmoq ma'nolarini bildirib, yasalgan siz ham unga monand iztirob degan ma'nolarda ishlatiladi.

Qaroqlar - qaroqchi,
nigohlar aldoqchi,
ishq-xato, ishq-haqchi.
Oyning gunohi bor,
Oyning savobi.[1;35]

"chi" — o'zbek tilida juda faol so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, kasb-hunar egasi yoki ma'lum bir yumush bilan shug'ullanuvchi otlarni yasaydi. Haqchi so'zidagi haq so'zi haqiqat, to'g'rilik, adolat singari ma'nolarga ega. Haqchi so'zining mazmuni esa haqiqat tarafdori, adolat talab qiluvchi demakdir.

Yirtib tashlanmagan, g'ijimlanmagan
Armonni hijjalar dil og'riqlari.
Na "nima"lanmagan, na "kim"lanmagan
Sog'inchlaring toshga aylanar ... qarib.[1;37]

Ko'ryapmizki, shoir ijodida -lan fe'l yasovchi qo'shimcha bilan okkazional birlik yasagan so'zlarning miqdori ortiqroqdir. Nima va kim olmoshidan fe'l yasalgani ham bunga bir dalildir.

Bu tuyg'u armonni gunohlar bilan
Yuvmoq istagidan topar qanoat.
Uning oqibatini na xoliq bilar,
Na shayton bo'ladi - musibatpanoh.[1;37]

Musibat arabcha so'z bo'lib, ma'nosi kulfat, ofat, og'ir sinovdir. Panoh bo'lsa, farschadan boshpana, himoya, asraydigan joy deya tarjima qilinadi. "Musibatpanoh"ning umumiy mazmun-mohiyati kulfatdan saqlovchi, og'ir damda boshpana bo'luvchi shaxs.

Yosh bo'lib qayoqda aylandi
"ketma" degan bo'g'i munojot.
Iltijo kunlandi, oylandi,
mustajob bo'lmagach na hojat?[1;37]

Kishilar kundalik turmush tarzida kunlab, oylab tarzidagi so'zlardan foydalanib kelishmoqda. Ammo Faxriyor kun va oy vaqtni bildiruvchi so'zlarga -

lan fe'l yasovchi qo'shimchani qo'shib, g'ayrioddiy birlik yasagan. Mazkur qo'shimcha so'zga, odatda, "...ga aylanish", "...holatiga o'tish" sxemasiga ega. Bu esa ijod namunasini badiiy ko'lamini yanada kengaytirishga xizmat qilgan.

Shamollarga do'nib borar xo'rsiniq,
Og'riq o'tishingga ochib berar yo'l.
Tumanga aylana boshlaydi vujud,
Ortida mo'jiza ro'y bermoqchiday.[1;52]

Xo'rsiniq so'zidagi iq affiksi ham ot yasovchi, ham sifat so'z turkumini yasay oladi. Ot yasalganda topshir+(-iq)=topshiriq(nima?) yutmoq+(-uq)=yutuq va b.q. bu yerda ko'rinib turibdiki, bu qo'shimcha siz asosida qaysi so'z qatnashganligini hisobga olib iq, uq, oq kabi shakllarda ifodalanadi. Sifat yasalishi ham yuqoridagidek, tinmoq+(-iq)=tiniq, buzmoq+(-uq)=buzuq kabi. Xo'rsiniq so'zining o'zagi xo'rsinmoq fe'li bo'lib, iq siz yasovchi qo'shimcha qo'shilgan. Bu yerdagi so'z asli ega vazifasida kelgan bo'lib, xo'rsiniq olam bo'lib birikma holida kelgan aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Seni o'z ko'yiga boshlab ketarsa,
O'zingdan "sen"larning o'tgani ne naf,
O'tmagani ne naf, ne naf muhabbat,
Ne nafdir suygining iztirobidan?[1;53]

To'rtinchi qatorda qo'llanilgan "suygi" leksemasining asosi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da keltirilgan ma'nosi suymoq, yaxshi ko'rmoq [4;611] shaklida berilgan bo'lib, sut(asos)ga -gi(ot yasovchi) qo'shimcha qo'shilgan. Huddi shu mazmunda so'z shakli sevgi (sevmog+gi) hisoblanadi.

Qolaversa, "Geometrik bahor" to'plami tarkibida "kimlanish", "uchlanish", "vaqtlanish", "borlash", "oyloq", "so'lli" kabi g'ayrioddiy so'zlar ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Faxriyor ijodi davomida okkazional birliklardan sermahsul foydalangan bo'lib, bayon qilinishi kerak bo'lgan fikrni yangi yasalgan so'zlar orqali ifodalay olgan shoirdir. Shuni ta'kidlash joizki, hali adabiy tilda va shevalarda foydalanilmagan yangi yasalmalar yaratish qobiliyati ijodkorning (u xoh nasrda bo'lsin, xoh nazmda) haqiqiy salohiyat egasi ekanligidan dalolat beradi. Okkazionalizmlar faqatgina she'rda so'zlarning rang-barang bo'lib jilolanishiga ko'maklashib qolmasdan, shoir aytmoqchi bo'lgan g'oyani yetkazib berish uchun muhim vazifa o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Faxriyor. Geometrik bahor(O'ngarilgan tushlar). -Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. Suvonova R. va Allamurodova S. Okkazionalizmlarning so'z turkumlariga xoslanishi.
3. Toshaliyeva S. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi. -Toshkent, 1988.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Toshkent: O'zbek milliy ensiklopediyasi.